

SHARTNOMA LOYIHASI

Toshkent sh.

“ ” 20 y.

«Biznesni rivojlantirish banki» ATB nomidan (keyingi o‘rinlarda – Buyurtmachi) 3osh ishonchnoma asosida faoliyat yurituvchi _____ bir tomondan va _____ nomidan (keyingi o‘rinlarda – Bajaruvchi) _____ asosida faoliyat yurituvchi _____ ikkinchi tomondan, birgalikda Tomonlar deb nomlanuvchi, mazkur shartnomani quyidagilar to‘g‘risida tuzdilar.

1. Shartnoma predmeti

1.2. «Bajaruvchi» «Buyurtmachi» bilan kelishilgan holda, xizmatni muddatidan oldin yoki qismlarga bo‘lib yetkazib berish huquqiga ega.

1.3. Yetkazib beriladigan xizmat sifati «Buyurtmachi»ning **“Bankdagi o‘zgarishlar va o‘zgarishlarni amalga oshirishni qo‘llab-quvvatlash uchun strategik sessiya va ta’lim dasturi texnik topshiriq”**da belgilangan texnik talablariga javob berishi kerak.

2. Shartnomaning umumiy qiymati va to‘lov shartlari

2.1. Ushbu shartnomaning umumiy qiymati _____ so‘m (QQS bilan birga).

2.2. Yetkazib berilayotgan xizmatlarning narxi yakuniy hisoblanadi va Tomonlar shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini to‘liq bajarilgunga qadar o‘zgartirilmaydi.

2.3. Xizmatlar uchun to‘lovlar quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- Shartnoma imzolagan kundan boshlab 5 ish kuni ichida shartnomaning miqdorining 30% miqdorida oldindan to‘lov amalga oshiriladi. Shartnomaning 70% miqdori buyurtmachi tomonidan xizmatni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolangan kundan boshlab aynalga oshirilgan ishlar hajmidan kelib chiqib 5 ish kuni ichida to‘lanadi.

2.4. To‘lov valyutasi – O‘zbekiston Respublikasi milliy valyutasi (so‘m).

3. Yetkazib berish shartlari va muddatlari

3.1. Xizmatni yetkazib berish muddati – Shartnoma imzolangan kundan boshlab 10 kun ichida xizmat kursatish boshlanishi zarur va 180 ish kunidan ortiq bo‘lmagan muddatda xizmatlarni taqdim etadi.

3.2. «Bajaruvchi» o‘z kuchlari va vositalari bilan xizmatni «Buyurtmachi»ning tabablari bo‘yicha yetkazib berish majburiyatini o‘z zimmasiga oladi. Yetkazib berish sanasi bo‘lib xizmatlarni «Buyurtmachi» tomonidan xizmatni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi hamda hisob faktura imzolangan kun hisoblanadi.

4. Topshirish-qabul qilish tartibi

4.1. «Buyurtmachi»ga xizmatlarga bo‘lgan mulk huquqi tomonlar xizmatni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolangandan so‘ng hisoblanadi.

4.2. Xizmatlarni sifat va miqdor bo‘yicha qabul qilish texnik ko‘rsatkichlar, shuningdek yetkazib berish vaqtida amalda bo‘lgan boshqa me’yoriy xujjalarga muvofiq amalga oshiriladi. Hajmi va o‘lchami ma’lumotlariga ko‘ra yetkazib beriladigan xizmatlar «Buyurtmachi»ning talablariga javob berishi kerak.

5. Tomonlarning mulkiy javobgarligi

5.1. Yetkazib berish muddati kechiktirilgan holatda «Bajaruvchi» «Buyurtmachi»ga uning talabiga asosan kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyatning bajarilmagan qismining 0,5% miqdorida penya to‘laydi, bunda penyaning umumiy miqdori yetkazib berilmagan xizmat narxining 50 %dan oshmasligi kerak.

5.2. Yetkazib berilgan xizmat uchun to‘lov o‘z vaqtida amalga oshirilmagan taqdirda «Buyurtmachi» «Bajaruvchi»ga uning talabiga asosan kechiktirilgan har bir bank ish kuni uchun muddati o‘tkazib yuborilgan to‘lov summasining 0,4 % miqdorida, lekin muddati o‘tgan to‘lov summaning 50%dan ko‘p bo‘lmagan miqdorda penya to‘laydi

5.3. Agar yetkazib beriladigan xizmatlar shartnomaning 1.3-bandda ko‘rsatilgan talablarga javob bermasa, ushbu shartnomaga bo‘yicha «Buyurtmachi» qo‘yidagi huquqlarga ega:

- xizmatni qabul qilish va to‘lashni rad etish;

- agar xizmat to‘lovi amalga oshirilgan bo‘lsa, uni sifatlisiga almashtirish yoki to‘langan summani qaytarish, shuningdek «Bajaruvchi»dan sifatsiz xizmat narxinining 20% miqdoridagi jarimani undirish.

5.4. Majburiyatlar lozim darajada bajarilmagan taqdirda penya va jarimalar to‘lovi amalga oshirilishi Tomonlarni shartnomasi majburiyatlarini bajarishdan ozod etmaydi.

6. Reklamatsiyalar

6.1. «Buyurtmachi»ning texnik talablariga xizmatlar muvofiq bo‘lmagan taqdirda yetkazib berilgan xizmat sifati bo‘yicha reklamatsiyalar (da’vo) berilishi mumkin.

6.2. «Buyurtmachi» «Bajaruvchi»ga xizmatlarni sifati bo‘yicha ekspluatatsiyaga kafolat muddati davomida reklamatsiya berish huquqiga ega.

6.3. Belgilangan kafolat muddati davomida foydalanish shartlariga muvofiq xizmat yaroqsiz holga kelgan taqdirda, keyinchalik foydalanish uchun yoki sifat talablariga javob bermasa «Bajaruvchi» o‘z hisobidan quyidagilarni o‘z zimmasiga oladi:

- kafolat muddatini birinchi yarmida foydalanish vaqtida ishdan chiqqan xizmatni to‘liq yangisiga almashtirish;

- kafolat muddatini ikkinchi yarmida foydalanish vaqtida ishdan chiqqan xizmatlarni qo‘yilgan talablarga muvofiq to‘liq ta’mirlash va yuqori sifatli holatga keltirish.

6.4. Agar «Buyurtmachi» tomonidan qabul qilingandan so‘ng yetkazib berilgan xizmat sifati bo‘yicha nomuvofiqlik aniqlansa «Bajaruvchi» 15 (o‘n besh) bank ish kuni ichida sifatsiz xizmatni o‘z hisobidan almashtirishga majburdir.

7. Nizolarni hal qilish

7.1. Ushbu shartnomasi bilan bog‘liq «Buyurtmachi» va «Bajaruvchi» o‘rtasidagi barcha nizolar va kelishmovchiliklar muzokaralar yo‘li bilan hal qilinishi kerak. Agar Tomonlar kelishuvga erisha olmasalar, mazkur shartnomadan kelib chiqqan yoki u bilan bog‘liq bo‘lgan barcha nizolar va kelishmovchiliklar Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudida ko‘rib chiqilishi kerak.

8. Fors-major

8.1. Tomonlar ushbu shartnomasi bilan bog‘liq «Buyurtmachi» o‘z majburiyatlarini qisman yoki to‘liq bajarmaganligi uchun quyidagi holatlarda javobgarlikdan ozod etiladi: yong‘in, suv toshqini, zilzila, urush, blokada va boshqa umume’tirof etilgan fors-major holatlari, davlat organlarining cheklov o‘rnatadigan xujjatlari qabul qilinishi. Fors-major holatlari yuzaga kelganda, Tomonlar bunday holatlardan yuzaga kelganligi to‘g‘risida 1 (bir) ish kuni ichida bir-birini yozma ravishda habardor qilishlari shart. Fors-major holati tufayli o‘z majburiyatini bajara olmayotgan Tomon boshqa Tomonga vakolatli organlar tomonidan berilgan ushbu holatlarni tasdiqlovchi xujjatlar taqdim etishi lozim.

8.2. Fors-major holatlari 1 (bir) oydan o‘tib ketsa, «Buyurtmachi» bir tomonlama shartnomani bekor qilish huquqiga ega bo‘ladi va ushbu shartnomasi bo‘yicha oldindan to‘langan to‘lov (Tomonlar bajargan majburiyatlar bundan mustasno) 10 (o‘n) bank ish kuni ichida qaytarilishi shart.

9. Korrupsiyaga qarshi qo‘srimcha shart

9.1. Ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda Tomonlar, ularning filiallari, xodimlari yoki vositachilari to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita biron bir shaxsning harakatlari yoki qarorlariga ta'sir qilish uchun har qanday noto'g'ri foyda olish yoki boshqa nomuvofiq maqsadlar uchun ushbu shaxslar pul yoki qimmatbaho narsalarni to'lamaslik, to'lashni taklif qilmaslik yoki to'lashga ruxsat bermasligi lozim.

9.2. Ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda, Tomonlar, ularning filiallari, xodimlari yoki vositachilari ushbu shartnoma maqsadlari uchun amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan pora berish/olish, tijoriy pora berish kabi harakatlarni amalga oshirmaydilar. Amaldagi qonunchilik va jinoyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga (yuvish) qarshi kurashish bo'yicha xalqaro hujjatlar talablarini buzmaslik.

9.3. Agar Tomonlardan biri ushbu bandning har qanday qoidalarining buzilishi sodir bo'lgan yoki sodir bo'lishi mumkin deb gumon qilsa, tegishli Tomon boshqa Tomonni yozma ravishda xabardor qilish majburiyatini oladi. Tegishli Tomon yozma ravishda xabardor qilingan taqdirda, ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishni buzilish sodir bo'limgani yoki bo'lmasligi tasdiqlanmaguncha to'xtatib turishga haqli. Ushbu tasdiqlash yozma zabar yuborilgan kundan boshlab 10 (o'n) ish kuni ichida yuborilishi kerak.

9.4. Yozma bildirishnomada Tomon kontragent, uning filiali, xodimlari yoki vositachilari tomonidan amaldagi qonun hujjatlarida pora berish yoki olish, tijorat poraxo'rlik, shunir gidek jinoyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish bo'yicha amaldagi qonunlar va xalqaro hujjatlar talablarini buzuvchi harakatlar sodir etishda hamda har qenday qoidalarining buzilishi sodir bo'lgan yoki sodir bo'lishi mumkin bo'lganligini ishcinchli tasdiqlaydigan yoki taxmin qilish uchun asos beradigan faktlarga murojaat qilishi yoki materiallarni taqdim etishi shart.

9.5. Tomonlardan biri 9.1-bandda taqiqlanganlardan voz kechish majburiyatlarini buzgan taqdirda, ushbu shartnomada va/yoki boshqa tomon ikkinchi tomonidan ushbu shartnomada belgilangan muddatda buzilish sodir bo'lmasligi to'g'risida tasdiqlama olmagan taqdirda, boshqa Tomon shartnomani bir tomonlama tartibda to'liq yoki qisman tugatish to'g'risida yozma xabarnoma haqli. Ushbu Shartnoma Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risidagi bandga muvofiq tashabbusi bilan bekor qilingan Tomon bunday bekor qilish natijasida yetkazilgan haqiqiy zararni qoplashni talab qilishga haqli.

10. Shartnomani amal qilish muddati

10.1. Mazkur shartnoma Tomonlar imzolagan sanadan kuchga kiradi va ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilgunga qadar amal qiladi.

11. Shartnomani o'zgartirish va bekor qilish tartibi

11.1. Ushbu shartnomaga kiritilgan har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar yozma ravishda rasmiylashtirilishi hamda «Buyurtmachi» va «Bajaruvchi» vakolatli shaxslari tomonidan imzolanishi orqali tuziladi.

11.2. Tomonlar shartnomani quyidagi hollarda bir tomonlama bekor qilish huquqiga ega:

- ushbu shartnomaning amal qilish muddati davomida «Bajaruvchi» tomonidan shartnoma shartlarini o'z vaqtida bajarilmagan taqdirda;
- ushbu shartnoma shartlari bir marta buzilganda yoki yetkazib beriladigan xizmat partiyasining sifati shartnoma majburiyatlariga mos kelmagan taqdirda;

- shartnomaning 8.2-bandida ko'rsatilgan holat yuzaga kelganda.

Shartnomani bekor qilish huquqiga ega bo'lgan tomon boshqa tomonni o'z niyati haqida yozma ravishda habardor qilishi shart.

12. Kafolatlar

12.2. Xizmatning kafolat muddati – 120 ish kuni.

13. Boshqa shartlar

- 13.1. Tomonlar bir-birining yozma roziligesiz ushbu shartnoma bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini uchinchi tarafga o'tkaza olmaydi.
- 13.2. «Bajaruvchi» ushbu shartnoma bo'yicha buyurtmani tuzish va ijro etish chog'ida o'ziga ma'lum bo'lgan buyurtma hajmi haqidagi ma'lumotlar va boshqa tijorat sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlashi shart.
- 13.3. Tomonlarning to'lov yoki boshqa rekvizitlari o'zgargan taqdirda, ikkinchi tomon bu haqda darhol yozma ravishda habardor qilinishi kerak.
- 13.4. Shartnoma, shu jumladan uning ilovasi/lari, mazmuni bir xil va teng yuridik kuchga ega 2 (ikki) nusxada imzolandi..

14. Tomonlarning yuridik manzillari, rekvizitlari va imzolari

BAJARUVCHI	BUYURTMACHI
------------	-------------

2024 y. «__» ____dagi ____-sonli
shartnomaga

1-ilova